

ABDULLA AVLONIY DRAMALARIDA IJTIMOIY HAYOT IN'IKOSI

**To'ychiyeva Aqida Abram qizi**

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va

Inklyuziv ta'lif fakulteti Logopediya yo'nalishi 3-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Avloni, o'z asarlarida zamonining ijtimoiy muammolarini chuqur tahlil qilib, ijtimoiy sinflar, axloqiy qadriyatlar va insonlarning ichki kurashlarini yoritadi. Uning qahramonlari, o'z muhitida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va ularning ta'sirida qiyinchiliklarga duch kelib, ijtimoiy adolat va tenglikni izlaydilar. Avlonining asarlarida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy o'zgarishlar o'rtaсидаги munosabatlar hamda ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan g'oyalalar tahlil etiladi. Avloni, o'z dramalarida insoniy fazilatlar va kamchiliklarni ko'rsatib, o'z davrining real ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola, Abdulla Avlonining asarlarida ijtimoiy hayot masalalarining qamrovini va ularning dolzarbligini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: zamonaviy o'zgarishlar, adolat, tenglik, qahramon, ijtimoiy sinflar, drama, ijtimoiy hayot, ijtimoiy muammolar, qadiryatlar, insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar.

***Аннотация:** Авлани, в глубоком анализе социальных проблем того времени в их работах, освещает внутреннюю борьбу социальных классов, моральных ценностей и людей. Его герои, когда изменения появятся в окружающей среде, ищут социальную справедливость и равенство, при условии влияния влияния. Работы Аллона проанализируют идеи, направленные на традиционные ценности и современные изменения и развитие общественного сознания. Альдон отражает реальную социальную жизнь своего времени, показывая человеческие*

качества и недостатки в своей драме. Короче говоря, в этой статье раскрывается объем вопросов социальной жизни в Абдулле Аллонони и их актуальность.

Ключевые слова: современные изменения, справедливость, равенство, герой, социальные классы, социальная жизнь, самоубийство, человеческие качества, моральные ценности.

Annotation: Avlani, in the deep analysis of the social problems of the time in their works, illuminates the internal struggles of social classes, moral values and people. His heroes, when the changes will emerge in its environment, seek social justice and equality, subject to the influence of influence. The works of Allon will analyze the ideas aimed at traditional values and modern changes and the development of social consciousness. The Aldon reflects the real social life of his time by showing human qualities and shortcomings in his drama. In short, this article reveals the scope of social life issues in Abdullah Allononi and their relevance.

Key words: modern changes, justice, equality, hero, social classes, social life, suicide, human qualities, moral values.

Abdulla Avloniylar tomonidan bir qancha dramalar yaratilgan bo‘lib, ularning barchasi jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan va ularning hammasida XX asr hayoti, xalqning ahvoli ochiqchasiga tasvirlangan. Bu dramalarni yozishdan maqsad, o‘sha davrda aholining kattagina qismi savodsiz bo‘lgan bir paytda jadidlar o‘z g‘oyalarini xalqqa singdirish uchun teatrni tanladilar. Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar olim Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Teatr - bu ibratxonadir”, - deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir. “Teatr jadidlar nazdida, avvalo “ulug‘lar maktabi”, “ibratxona” bo‘lib, xuddi maktab va matbuot kabi ma’rifat, ilm olmoq g‘oyasini targ‘ib etishi ko‘zda tutilgan edi” Bu dramalarda o‘sha davrda Turkiston mintaqasidagi ijtimoiy ahvol yorqin tasvirlangan bo‘lib, davriy muammolar aks etgan. Misol uchun, Abdulla

Avloniyning dramalari bunga yorqin misoldir. “Advokatlik osonmi?” asarida Yevropada huquqshunoslik bo‘yicha o‘qigan, yangi fikrli yosh bir musulmon yigit to‘g‘risida gap ketadi. Asardagi ushbu obraz Abdulla Avloniyning idealidagi obraz hisoblanadi. Yigirma to‘rt yoshda bo‘lgan, aholining qilgan ishlaridan, o‘z haq - huquqini talab qila olmasligidan, o‘zлari tuzatib bo‘lmas xatoga yo‘l qo‘ysalarda, yordam berishlarini talab qilishidan aziyat chekuvchi obrazdir. Avloniyning “Biz va Siz”da bosh qahramon ziyoli o‘zbek yigit, Yevropadan qaytib kelgach, eskilikcha turmushga ko‘nika olmayotgan yigit. Ushbu dramada ayanchli muammolar orqali syujet liniyasidagi voqealar fojeaga aylanadi, bosh qahramon yigit va qiz taqdiri ayanchli yakunlanadi. “Biz va Siz” dramasida oiladagi, butun jamiyatdagi jaxolat, ilmsizlik oshkora fosh etiladi. O‘n yil davomida Yevropada taxsil olib qaytgan Kamol ham ruhiy va jismoniy, ham ma’naviy jihatdan barkamol yigit. Taxisili davomida yurtida kechayotgan o‘zgarishlardan xursand bo‘lgan, uyga qaytgach, tamoman aks manzarani ko‘rgan va qayg‘uga botgan obraz. Avlonining dramatik asarlarida ijtimoiy hayotning turli ko‘rinishlari ko‘rinadi. U zamonning ijtimoiy muammolariga, tenglik, ta‘lim, va ijtimoiy adolat masalalariga e’tibor qaratadi. Qahramonlarning hayoti orqali ijtimoiy sinflar o‘rtasidagi farqlar va ularning insonlar hayotidagi ta’siri yoritiladi. Avloni, o‘z asarlarida ishchi va qishloq aholisi, yuqori sinf vakillari o‘rtasidagi ziddiyatlarni tasvirlash orqali, o‘z zamonining ijtimoiy tuzilmasiga tanqidiy nazar bilan qaraydi. Dramalarida Avlonining qahramonlari ko‘pincha o‘z ijtimoiy muhitidan davom qilib, o‘z qarorlarini qabul qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ular o‘z hayotlaridagi o‘zgarishlar, o‘z orzulari va rejalar bilan kurashishadi. Bu kuchli hissiyotlar va ichki kurashlar, Avlonining qahramonlarini yanada jonli va aytishli qiladi. Shuningdek, Abdulla Avloni, o‘z asarlarida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy o‘zgarishlar o‘rtasidagi munosabatlarni ham ko‘rsatadi. U ijtimoiy hayotning har bir katakchasida insoniy fazilatlar va kamchiliklar ko‘rsatilgan. Avlonining dramalari ijtimoiy ongni yanada rivojlantirishga, axloqiy qadriyatlarni saqlashga va ularni takomillashtirishga qaratilgan. Avloniy tarjimashunoslikda ham o‘zini sinab ko‘rdi. Jumladan, “Badbaxt kelin”, “Xo‘r-xo‘r”, “Jaholat”, “O‘liklar”, “Joy ijaraga olgan

kishi”, “Man o‘lmisham”, “Layli va Majnun”, “Asli va Karam” kabi sahna uchun mo‘ljallangan dramatik turga mansub bo‘lgan asarlarni ozarbayjon tilidan o‘zbek tiliga o‘giradi va ularni sahnada o‘ynash uchun tayyorlaydi. Bu asarlarning ko‘pchiligi Ozarbayjon klassik adabiyotining nodir tuhfalari hisoblanib, insonlarni ezgu niyat va yaxshilik qilish, sevgi va muhabbat kabi olижаноб tuyg‘уларни tarannum etadi hamda jamiyatdagi illatlar, kamchilik va nuqsonlarni, ayniqsa, ma’naviy tuban kimsalarni qattiq qoralaydi. Jadidlar ko‘pgina dramalarni yozish bilan birgalikda ularning nazariy asoslarini ham tavsiflab beradilar. Bu yo‘lda qator maqola hamda ilmiy asarlar yaratadilar. Masalan, Mahmudxo‘ja Behbudiy “Teatr nadur?”, Abdulla Avloniy “Teatr xususida munozara”, Tavallo “Teatr haqinda”, “Teatrga maxsus” kabi qator maqola va asarlar e’lon qildilar. Jadid adabiyoti namoyandalarining hayoti va ijodi, ularning asarlari, jumladan, dramaturgiyasi haqida adabiyotshunos olimlardan G‘.Karimov, O.Shafafiddinov, B.Qosimov, N.Karimov, Sh.Rizayev, S.Ahmad, Sh.Turdiyev, B.Do‘sitorayev va boshqa yirik adabiyotshunos olimlar bilan birgalikda bir qator yosh tadqiqotchilar tomonidan ham salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Shunday qilib, Abdulla Avloni o‘z dramalari orqali ijtimoiy hayotni chuqur tasvirlab, insoniy muammolarni va axloqiy qiyinchiliklarni o‘rganishda bizga katta ko‘mak beradi. Uning asarlari bugungi kunda ham zamonaviy ijtimoiy masalalar nuqtai nazaridan dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Alimova, Z. K. "Organization of Non-State Preschool Educational Organizations and Licensing of their Activities." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.1 (2022): 268-273.
2. Mansurovna, Rasulova Iroda, and Alimova Zulfiya Karimovna. "The formation of the psyche of preschool children through physical education and sports." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).

3. Karimovna, Alimova Zulfiya. "Reforms in the Field of Preschool Education and Modern Pedagogical Methods of Teaching." INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION 1.5 (2022): 105-110.
4. <https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/download/2302/2200/2296>